

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**SADIBAQOSEV HABIBULLO SHODIBOY O‘G‘LI**

**ZAMONAVIY XALQARO XAVFSIZLIK TIZIMIDA  
AQSH VA XITOYNING O‘RNI**

**23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Siyosiy fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора (Doctor of Science) по политическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract  
the Doctor of political Sciences**

|  |    |
|--|----|
| <b>Sadibaqosev Habibullo Shodiboy o‘g‘li</b><br>Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh<br>va Xitoyning o‘rni.....                        | 3  |
| <b>Садібакосев Хабибулло Шодибой угли</b><br>Роль США и Китая в современной системе международной<br>безопасности.....                       | 27 |
| <b>Sadibakosev Khabibullo Shodiboy o‘g‘li</b><br>The role of the United States and Chine in the modern international<br>security system..... | 51 |
| <b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b><br>Список опубликованных работ<br>List of published works.....   | 55 |

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**SADIBAQOSEV HABIBULLO SHODIBOY O‘G‘LI**

**ZAMONAVIY XALQARO XAVFSIZLIK TIZIMIDA  
AQSH VA XITONING O‘RNI**

**23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Siyosiy fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Ss101 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Sayfullayev Durbek Baxtiyarovich**  
tarix fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Kasimova Nazokat Anvarovna**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Karimova Nataliya Ermanovna**  
tarix fanlari doktori, professor

**Nurimbetov Raxmatulla Ibragimovich**  
siyosiy fanlar doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**  
**huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24. Faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin («\_\_» raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24. Faks: (99871) 233-52-24

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**N.A.Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi vazifasini bajaruvchi, siyosiy fanlar  
doktori, professor

**D.I. Madaminova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

**E.S.Sultonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tobora gibridlashib borayotgan globallashuv davrida xalqaro xavfsizlikni ta'minlash murakkab tusga kirmoqda. Avvalgi xalqaro xavfsizlikni ta'minlash institutlari hozirgi xalqaro vaziyat talablariga kutilgan darajada javob bera olmayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, xalqaro xavfsizlik va uni ta'minlash borasidagi asosiy to'siqlar sifatida an'anaviy ziddiyatlarning qaytadan kuchayishi, xavfsizlikka nisbatan noodatiy chaqiriqlarning paydo bo'lishi, davlatlar o'rtasidagi nizolar va ixtiloflarning keskinlashuvi, qurollanish poygasining avj olishi kabi holatlar sodir bo'lmoqda. Ushbu tendensiyalar xalqaro xavfsizlik tizimining barqarorligiga bo'lgan ishonchni zaiflashtirmoqda.

Xalqaro xavfsizlikka nisbatan yangicha yondashuvlarning shakllanayotgani AQSh va Xitoy raqobati ostida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Qo'shma Shtatlar va Xitoy o'rtasidagi strategik raqobat so'nggi yillar ichida mintaqaviy va global barqarorlikka chuqur ta'sir ko'rsatadigan asosiy belgilovchi omil darajasiga aylanib borayotgani ilmiy tadqiqotlarning asosiy obyekti sifatida tanlanishiga sabab bo'lmoqda. Qo'shma Shtatlarning bir qutbli dunyo, Xitoyning esa, ko'p qutbli dunyoni yaratishga qaratilgan xalqaro siyosiy sa'y-harakatlari xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda chuqur metodologik-institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Xalqaro xavfsizlik arxitekturasidagi tebranishlar O'zbekiston tashqi siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bu borada davlatlararo ishonch masalasi fundamental qadriyat sifatida tan olinmoqda. "Xalqaro munosabatlar tizimi tobora ortib borayotgan beqarorlik va kutilmagan hodisalar bilan izohlanmoqda. Bugungi kunda jahon ishonch inqiroziga yuz tutmoqda. Aslida, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi ishonch xavfsizlik va barqarorlikning eng muhim shartidir"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, O'zbekiston Markaziy Osiyoda ishonch va hamkorlik ruhini jonlantirish, mintaqaviy muammolarni siyosiy va diplomatik yo'llar bilan hal qilish jarayonlarida AQSh va Xitoy kabi yirik davlatlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-apreldagi O'RQ-471-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi, 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-sonli "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonunlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishi doirasida

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xavfsizlik – bo'linmas, ishonch esa uning fundamental asosidir, 15.06.2019 <https://president.uz/oz/lists/view/2668>

bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.**

Xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh va Xitoyning o'rni masalalari: AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari, tadqiqot va aql markazlari, Amerika Qo'shma Shtatlardagi Harvard, Stanford, Yale universitetlari, Massachusetts texnologiyalar instituti, Markaziy Osiyo va Kavkaz Instituti, Xalqaro munosabatlar bo'yicha Kengash, Kolumbiya universiteti, Oksford universiteti qoshidagi Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari markazi (Buyuk Britaniya), Tashqi siyosat tadqiqoti instituti (Filadelfiya shahri), Jeneva xavfsizlik siyosati markazi (Shveysariya), Fan va siyosat jamg'armasi (Germaniya), Yevropa tashqi siyosat Kengashi (Bryussel shahri) tomonidan keng tadqiq qilingan.

Xalqaro xavfsizlik borasidagi tadqiqotlar: Sharqning muhim tadqiqot va "aql markazlari", xususan, XXRdagi Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar instituti, XXR Tashqi ishlar vazirligi (TIV) akademiyasi huzuridagi Xitoy xalqaro muammolar akademiyasining Yevroosiyo instituti, Shanxay xalqaro tadqiqotlar akademiyasi, Xitoyning Fudan universiteti, Markaziy Osiyo instituti, Shimoliy-Sharqiy universitet huzuridagi Ipak yo'lini o'rganish instituti, Rossiya Federatsiyasining Xalqaro ishlar bo'yicha Kengashi, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti qoshidagi Xitoy, Sharqiy Osiyo va Yevro-Atlantik xavfsizlik Markazi, Rossiya Fanlar akademiyasining Xitoy va zamonaviy Osiyo instituti, Hindistonning Xalqaro ishlar bo'yicha kengashi, Javaxarlal Neru universiteti, Kuzatuv tadqiqot fondi (Observer Research Foundation), Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Prezidenti huzuridagi strategik tadqiqotlar institutlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar intistituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutlari tomonidan olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot davomida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganib chiqilgan bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin<sup>2</sup>:

*birinchi guruh* xavfsizlik borasidagi tadqiqotlar, xususan, "xavfsizlik" tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, xavfsizlikning milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik darajalari, xalqaro munosabatlarda xavfsizlikka yondashuvlari, G'arb xavfsizlik paradigmalari borasidagi ilmiy ishlar: B.Buzan, L.Hansen, P.Williams, S.Smith, S.Walt, D.Frei, D.Bigo, M.Demiray, A.Wolfers, O.Waever, M.Patrick, G.Brauch, F.Arends, K.Booth, P.Katzenstein, D.Baldwin, J.Ikenberry, K.Morton, K.Waltz, R.Keohane, A.Wendt, J.Huysmans, J.Tickner, R.Cox, D.Campbell, M.Neocleous, I.Wallerstein va boshqalarning tadqiqotlaridan foydalangan holda tadqiq etildi.

*Ikkinchi guruh* uchinchi dunyo xavfsizlik tizimi borasidagi nazariy qarashlar, Sharq xavfsizlik paradigmalari haqida: M.Ayub, A.Acharya, K.Bajpai, P.Bilgin, B.Korany, S.Krishna, I.Abraham, B.Singh, R.Bedeski, E.Larus, E.Azar, C.Thomas, E.Henderson, Chung-in Moon va boshqalarning ilmiy ishlarida ochib berilgan va tadqiqotdan keng foydalanilgan.

---

<sup>2</sup> Zikr etilgan olimlarning tadqiqot ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

*Uchinchi guruh* AQShning jahon siyosati va xavfsizligidagi o'рни, AQSh xavfsizlik paradigmalarining shakllanishida mintaqaviy va global xavfsizlik omillarining ta'siri, xalqaro xavfsizlik muammolariga nisbatan AQSh yondashuvlari va strategiyalari borasidagi ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borgan: W.LaFeber, H.Kissinger, F.Fukuyama, R.Lipsey, R.Kennedy, J.Nye, J.Gaddis, A.Schlesinger, B.Eichengreen, D.Reynolds, J.Mearsheimer, D.Merrill, H.Kissinger, M.Leffler, Z.Brzezinski, S.Huntington, H.Morgenthau, R.Kagan, A.Bacevich, D.McDonough, N.Polmar, R.Norris, J.Welsh, G.Adams, R.Barry, G.Allison, G.Kennan va boshqa olimlarning ishlaridan foydalanilgan.

*To'rtinchi guruh* zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Xitoyning o'рни va ta'siri, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimining shakllanishida Xitoy yondashuvining o'ziga xos xususiyatlari, xalqaro xavfsizlik tizimining barqarorligi bo'yicha Xitoy yondashuvlari va uning ahamiyatiga doir masalalar o'zbekistonlik olimlar: A.Xodjayev, I.Bekmurodov, Sh.Shazamanov, N.Karimova, R.Nurimbetov, H.Kazakbayev, rossiyalik olimlar: I.Denisov, V.Portyakov, A.Perminova, A.Kortunov, xitoylik va boshqa xorijlik olimlar: Ku Hung-ming, Yufan Hao, Huiyun Feng, Zheng Bijian, Chen Zhimin, Zhao Tingyang, Wu Jianmin, Su Hao, Suisheng Zhao, Tony Tai-Ting Liu, Wang Jisi, Yan Xuotong, Yuen Foong Khong, Hu Xijin, F.Bergsten, F.Kuhn, G.Roland, Sh.Breslin, Ch.Sussangkarn, A.Latham, M.Jacques, D.Shambaugh va boshqalarning ilmiy ishlarida keng o'rganilgan va tadqiqotda ulardan foydalanilgan.

*Beshinchi guruh* Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalariga oid tadqiqotlar bo'lib ular: S.Safoyev, Sh.Abdullayev, S.Jo'rayev, S.Saidolimov, R.Alimov, S.G'ofurov, F.Tolipov, G.Ismatullayeva, F.Karimov, S.Bo'ronov, S.Ubaydullayeva, O.Sirojov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro xavfsizlikka nisbatan yangi yondashuvlar, G'arb va Sharq xavfsizlik tushunchalari va yondashuvlarining o'ziga xosliklari, AQSh va Xitoy o'rtasidagi raqobat, dunyo tartiboti va xalqaro xavfsizlik masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar mamlakatimizda yetarlicha olib borilmagan va chuqur o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan mazkur dissertatsiya xalqaro xavfsizlikni yangicha tushunishimizda, mavjud global muammolarni anglab tasavvur qilishimizda, ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining "Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik, integratsiya va global raqobat kontekstida xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh va Xitoyning o'рни va rolini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ilmiy tadqiqotlarda xalqaro "xavfsizlik tizimi" tushunchasining rivojlanishini tadqiq etish, xavfsizlik borasidagi yangi ilmiy tushuncha va ta'riflarni o'rganish;

G'arb xavfsizlik paradigmasining turli ko'rinishlari va mohiyatini tahlil qilish

orqali mazkur paradigmning xalqaro xavfsizlik tizimidagi o‘rnini ochib berish;

Sharq xavfsizlik yondashuvlarining paydo bo‘lish tarixi va sabablarini hamda rivojlanish tendensiyalarini ochib berish;

jahon siyosati va xavfsizlik tizimining shakllanishida AQShning iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatining o‘rni hamda yondashuvlari va strategiyasini ochib berish;

zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Xitoyning ortib borayotgan kuchi va ta‘sirini yoritib berish;

mintaqaviy va global xavfsizlik tizimining shakllanishida Xitoy yondashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish, xalqaro xavfsizlik tizimining barqarorligi bo‘yicha Xitoy yondashuvlari va uning ahamiyatini aniqlash;

AQSh va Xitoyning xalqaro xavfsizlik borasidagi yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish;

AQSh va Xitoyning xalqaro xavfsizlik arxitekturasi uchun uyg‘un konsepsiya yaratish muammolari va istiqbollarini ochib berish;

o‘zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasida O‘zbekiston uchun ilmiy va amaliy xulosalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimi va uning dinamikasi, xususan, AQSh va Xitoyning ushbu tizimdagi strategik o‘rni va roli olingan.

**Tadqiqotning predmetini** AQSh va Xitoyning zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimiga ta‘sir ko‘rsatuvchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va texnologik strategiyalari, ular o‘rtasidagi raqobat va hamkorlik shakllarining mintaqaviy hamda global xavfsizlikka ta‘siri tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda: tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, siyosiy jarayonlarni modellashtirish, politologik o‘rganish, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik tahlil ma‘lumotlari va boshqa tadqiqot usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

hozirgi xalqaro xavfsizlik tizimi arxitekturasining bugungi zamon talablariga to‘liq javob bermasligi, xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha G‘arb va Sharq yondashuvlarining bir-biridan farq qilib, dunyo tartibotining qaytadan qutblashib borish tendensiyasini inobatga olgan holda zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimini isloh qilish zaruriyati “konstruktiv sekyuritizatsiya” paradigmasiga ko‘ra asoslab berilgan;

Yevroosiyo makonidagi xavfsizlik o‘lchovlari AQSh va Xitoy o‘rtasidagi global raqobat natijasida transformatsiyaga uchrayotganligi, Xitoyning xalqaro maydonda AQSh ta‘sirini cheklashga qaratilgan ko‘p qutbli dunyo tartibotini qo‘llab-quvvatlash strategiyasi xalqaro munosabatlardagi kuchlar nisbatining an‘anaviy kuch markazlaridan yangi kuch markazlariga o‘tkazish jarayonlariga turtki berayotganligi “Fukidid tuzog‘i” konsepsiyasi asosida isbotlangan;

bugungi dunyoni sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ziddiyat va tartibsizlik dunyosi deb hisoblaydigan AQSh realistik yondashuvlaridan farqli ravishda, XXR “dunyo

– bir oila” tamoyili asosida bir-birini tiyib turish, barcha millat va xalqlarning umummanfaatlarini o‘zida aks ettiruvchi idealistik qarashlarni ilgari surayotganligi Xitoyning “Tyansya” xavfsizlik mafkurasi orqali aniqlangan;

Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda AQSh va Xitoy kabi yirik kuch markazlarining o‘zaro raqobatini muvozanatlashtirish, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik istiqbollari bo‘yicha strategik mavhumlikning saqlanib qolayotganidan kelib chiqib, mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yakdil yondashuvlarni nazarda tutuvchi “Markaziy Osiyo kollektiv xavfsizlik strategiyasi”ni ishlab chiqish taklifi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat:

G‘arbda paydo bo‘lgan xavfsizlik nazariyalari AQShda “milliy xavfsizlik” konsepsiyasi doirasida shakllanganligi, G‘arbiy Yevropada esa, “strategik tadqiqotlar” ko‘rinishida rivojlanganligi, bu esa, xavfsizlik masalasini fuqarolik ishlariga aralashib ketishi, xavfsizlikning institutsionallasuvi, turli tadqiqot markazlari hamda universitetlarning muhim yo‘nalishlariga aylanishi, keyinchalik, Sharq xavfsizlik yondashuvlarining o‘rtaga chiqishi, uning xavfsizlikni o‘rganishda jahon siyosatidagi “G‘arb”ning iyerarxik amaliyotlari va nutqlarini tanqid qilib, uchinchi dunyo va postkolonial xavfsizlik yondashuvlari doirasida ham nazariy, ham aniq siyosiy o‘zgarishlarga qaratilgan empirik tadqiqotlar olib borganligi ochib berilgan;

AQShning global yetakchilikka bo‘lgan intilishi bosqichma-bosqich shakllanganligi, bugungi xalqaro tizim va dunyo tartibotining qurilishida “Amerika orzusi”ni amalga oshirish uchun asosiy yetakchilikni Amerika Qo‘shma Shtatlar o‘z qo‘liga olganligi, o‘ziga raqib bo‘lgan global kuchga da‘vogarlik qilgan davlatlar ustidan g‘olib kelib, liberal demokratik dunyo yaratish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari AQShga ko‘plab yutuqlar olib kelishi bilan birga, unga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini ham shakllantirgani, bugun Amerika o‘z kuch-qudratini saqlab qolish uchun yangi strategiya va yangi g‘oyalarga ehtiyoji borligi ilmiy-amaliy asoslab berilgan;

Xitoy o‘z tarixida Afyun urushlaridan, Yaponiya ishg‘olidan va Sovuq urush davridagi AQSh-SSSR qarama-qarshiliklaridan katta saboq chiqarganligi uchun uzoq vaqtdan beri “tinch yuksalish” konsepsiyasiga sodiq qolayotganligi, biroq bu tinch rivojlanish strategiyasi faqat uning manfaatlariga mos bo‘lganicha saqlanib qolishi, aks holda har qanday agressiv siyosatga ham tayyor ekanligi va Xitoyning bu siyosati o‘tmishdagi “gong” (vassal yoki o‘lpon) tizimiga mos kelishi, ushbu tizim orqali o‘tmishda bo‘lganidek, hozirda ham Xitoyning kuch va qudratini tan olgan, unga tahdid qilmaydigan, uni va fuqarolarini hurmat qilib, do‘stona munosabatda bo‘ladigan davlatlarga iqtisodiy va moliyaviy yordam berish orqali o‘ziga qaramligini orttirishga bo‘lgan “Xitoy orzusi (中国梦- Zhōngguó mèng)”ni amalga oshirish uchun bor kuch-g‘ayratini sarflayotganligi ochib berilgan;

AQSh va Xitoyning raqobati kuchayib borayotganligi, ayniqsa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi “buyuk kuchlar” raqobati yanada keskinlashib, ushbu hudud, endilikda eng muhim strategik to‘qnashuv makoni sifatida namoyon bo‘layotganligi, oxirgi paytlarda Amerika harbiy kuchlarining global qayta

joylashuv jarayonlari va xususan, o'z harbiy qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqishi, Iroq va Yaqin Sharqdagi harbiy kontingentning qisqartirilishi hamda asosiy strategik e'tibor yanada ko'p Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga qaratilishi aynan ushbu hudud yaqin va o'rta muddatli kelajakda global raqobat maydoniga aylanishidan darak berayotganligi borasida ilmiy dalil va xulosalar berilgan.

Bunday o'zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik muhitida va xavfsizlikka tahdidlarning ko'lami va turi kengayib borayotganligi, ayniqsa, kuchli davlatlarning bosimi kuchayib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston uchun xavfsizlik omillarini qayta ko'rib chiqish va baholash, tashqi siyosiy faollikni oshirish, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va global kuch markazlari bilan muvozanatli tashqi siyosat olib borish masalalarida ilmiy hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining xalqaro xavfsizlik borasidagi nufuzli ilmiy nashrlar, xalqaro va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgani, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda xavfsizlik, tashqi siyosat, mintaqashunoslik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlari, o'quv muassasalar, soha mutaxassislari, aql markazlari hamda ushbu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun amaliy qo'llanma, tavsiya bo'lib xizmat qilishi, G'arb va Sharq xavfsizlik paradigmalari, o'zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik jarayonlari haqidagi tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda o'quvchi talabalar, mutaxassislar va bu yo'nalishga qiziquvchilarga kelgusi tadqiqotlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tashqi siyosiy faoliyat va xalqaro xavfsizlik sohasida davlat konsepsiya va strategiyalarini qabul qilishda, bu sohada qarorlar qabul qilish, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida qo'llanilishi, bu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida xalqaro xavfsizlik sohasidagi fanlarni o'qitishda amaliy metod va metodologik jihatdan xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh va Xitoyning o'rni bo'yicha o'rganishlar yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy taklif va tadqiqot natijalari asosida:

Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda AQSh va Xitoy kabi yirik kuch markazlarining o'zaro raqobatini muvozanatlashtirish, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik istiqbollari bo'yicha strategik mavhumlikning saqlanib qolayotganidan kelib chiqib, mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yakdil yondashuvlarni nazarda tutuvchi "Markaziy Osiyo kollektiv xavfsizlik strategiyasi"ni ishlab chiqish taklifiga oid ilmiy tadqiqot

xulosasi va unga tegishli tahliliy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan respublika vazirlik va idoralariga yuboriladigan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi 01-18-08-08/10503-son ma'lumotnomasi*). Natijada, O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi siyosatini amalga oshirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan omillarga oid tahliliy ma'lumotnomalarni shakllantirishga xizmat qilgan;

Yevroosiyo makonidagi xavfsizlik o'lchovlari AQSh va Xitoy o'rtasidagi global raqobat natijasida transformatsiyaga uchrayotganligi, Xitoyning xalqaro maydonda AQSh ta'sirini cheklashga qaratilgan ko'p qutbli dunyo tartibotini qo'llab-quvvatlash strategiyasi xalqaro munosabatlardagi kuchlar nisbatining an'anaviy kuch markazlaridan yangi kuch markazlariga o'tkazish jarayonlariga turtki berayotganligi "Fukidid tuzog'i" konsepsiyasi asosida isbotlanganligiga oid xulosa va tahliliy ma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi 01-18-08-08/10503-son ma'lumotnomasi*). Natijada, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boruvchi tahliliy markazlarning ilmiy-tahliliy bazasini kengaytirishga xizmat qilgan;

bugungi dunyoni sivilizatsiyalar o'rtasidagi ziddiyat va tartibsizlik dunyosi deb hisoblaydigan AQSh realistik yondashuvlaridan farqli ravishda XXR "dunyo – bir oila" tamoyili asosida bir-birini tiyib turish, barcha millat va xalqlarning umummanfaatlarini o'zida aks ettiruvchi idealistik qarashlarni ilgari surayotganligi Xitoyning "Tyansya" xavfsizlik mafkurasiga oid xulosasi va unga tegishli tahliliy ma'lumotlardan Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 27-noyabrdagi 02-02/02/1/3193-son Dalolatnomasi*) Natijada, mafkuraviy masalalar bo'yicha targ'ibot ishlarida yangicha tahliliy ma'lumotlardan foydalanish orqali ta'sirchanlik va ishonchlikni oshirish imkonini bergan;

hozirgi xalqaro xavfsizlik tizimi arxitekturasining bugungi zamon talablariga to'liq javob bermasligi, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha G'arb va Sharq yondashuvlarining bir-biridan farq qilib, dunyo tartibotining qaytadan qutblashib borish tendensiyasini inobatga olgan holda zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimini isloh qilish zaruriyati "konstruktiv sekyuritizatsiya" paradigmasiga ko'ra asoslab berilganiga oid xulosalardan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining "IL-5221091507-Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O'zbekistonning tashabbusi asosida)" nomli davlat granti loyihasi doirasida foydalanilgan (*Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024-yil 13-sentabrdagi 01-04-01/2099-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, G'arb va Sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishida AQSh va Xitoy raqobati oqibatlari ta'sirining oldini olishga oid konseptual taklif va xulosalar shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 25 ta maqola (ulardan 19 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda) nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 262 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, respublika fan hamda texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ilmiy hamda amaliy ahamiyati, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishonchliligi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinishi, ishning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Dissertatsiyaning “Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy tadqiqotlarda xalqaro “xavfsizlik tizimi” tushunchasining rivojlanishi, G‘arb xavfsizlik paradigmasining xalqaro xavfsizlik tizimidagi o‘rni, Sharq xavfsizlik arxitekturasining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan va tadqiq etilgan.

“Xavfsizlik” tushunchasi turli nuqtayi nazar va ko‘plab ta‘riflarga ega bo‘lib, ushbu tushunchaning birinchi paydo bo‘lishi va tarixiy rivojlanishi ikkita lotincha so‘z “se” (*siz* inkor qo‘shimchasi) va “cura” (muammo, tashvish) so‘zlarining birikmasidan iborat bo‘lgan “securitas” so‘zidan olingan<sup>3</sup>. Lotin tilida “Se” qo‘shimchasi biror narsaning inkori yoki yo‘q bo‘lish ma‘nosini bildiradi, “cura” qayg‘u va tashvish ma‘nolarini bildiradi<sup>4</sup>. Shunday qilib, “securus” va “securitas” tushunchasi: “tashvishsiz, beg‘am, qayg‘usiz, g‘am-tashvishdan xoli, qayg‘u va tashvishlardan ozod bo‘lmoq, xavfsiz bo‘lish” degan ma‘noni anglatadi<sup>5</sup>.

Shuningdek, ba‘zi kitoblar, bitiklar va asarlarda bu so‘z e‘tibor qilingan, himoyalangan yoki g‘amxo‘rlik qilingan narsa ma‘nolarini ham anglatadi<sup>6</sup>. “Sekuritas” qadimgi rimliklar tomonidan “xavfdan ozod bo‘lish va xavfsizlik” deb tushunilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, “securitas” tushunchasi Yevropa an‘analarining boshidanoq ham ijobiy, ham salbiy ma‘noda tushunilgan<sup>7</sup>.

<sup>3</sup> Charlton T. Lewis and Charles Short, 1978, “A Latin Dictionary”, Clarendon Press, Oxford.

<sup>4</sup> Daniel Frei, Was ist unter Frieden und Freiheit zu verstehen? Wolfgang Heisenbert/Dieter S. Lutz (Ed.) „Sicherheitspolitik kontrovers“, Schriftenreihe Band 291/I, Bundeszentral für politische Bildung, Bonn, 1990, s.45

<sup>5</sup> Demiray, M., İşcan, İ., 2008. “Uluslararası Sistemde Güvenlik Kavramının Değişimi Ekonomik Ve Jeopolitik Arka Planı”, Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Cilt: 1, sayı: 21, s. 141-170.

<sup>6</sup> P.G.W. Galare, Oxford Latin Dictionary, Clarendon Press, Oxford, 2005, p.1722.

<sup>7</sup> Daniel Frei, Was ist unter Frieden und Freiheit zu verstehen? Wolfgang Heisenbert/Dieter S. Lutz (Ed.) „Sicherheitspolitik kontrovers“, Schriftenreihe Band 291/I, Bundeszentral für politische Bildung, Bonn, 1990, s.4.

Ushbu tushunchaning turkiy va arabcha ildizlari ham ishonch va e'tiqodni o'z ichiga oladi. Fransuz tilida (sûreté) va nemischada (Sicherheit) ham o'xshash ma'nolarni topish mumkin. Fors tilida (امنیت, ایمنی) va turkchada (Emniyet) so'zlari arabcha (امن, ايمان, أمين, ائتمان) ishonmoq, ishonchli, xavfsiz ma'nosini anglatuvchi asos so'zdan kelib chiqadi. Faqat turk tilidagi xavfsizlikka nisbatan qo'llaniladigan "güvenlik" so'zi ishonch (küven) ildizidan olingan bo'lib, VIII-XI asrlar oralig'ida O'rta Osiyo turkiy tillarida shon-shuhrat, obro'-e'tibor va kuch ma'nosida qo'llangan "küve" yoki "küv" so'zlari ushbu "güven" so'zining etimologik kelib chiqishini tashkil qiladi<sup>8</sup>. O'z-o'zini ko'rsatish, maqtanish yoki g'ururlanish, manmanlik, o'zini kuchli sanash ma'nolarini ham anglatuvchi "küven" o'zagi tufayli bu so'z XIX asrgacha, asosan, salbiy ma'noda ishlatilgan. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, "xavfsizlik" tushunchasi bir o'lchovli emas. Shu sababli ham xavfsizlik psixologik va jismoniy o'lchovga ega ekanligini tushunish mumkin.

Har bir tilda shunday ma'noga ega tushuncha mavjud bo'lsa-da, xalqaro miqyosda qo'llanilgan xavfsizlik so'zining inglizcha muqobili "security" so'zidir. Xavfsizlikka oid xalqaro tadqiqotlardagi asosiy yondashuvlar ushbu etimologik atama bilan uyg'un ekanligi ko'rinib turibdi. Chunki bugungi kunda xavfsizlik bilan bog'liq tahlillar, ayniqsa, xavfsizlik, ya'ni xavf-xatardan uzoqda, qo'rquvdan ozod bo'lish (freedom from fear) va ehtiyojlarni qondira olish kafolati (freedom from wants) asosida amalga oshiriladi<sup>9</sup>.

Xalqaro xavfsizlik tadqiqotlari "International Security Studies" (ISS) sifatida tanilgan xavfsizlik tadqiqotlari siyosiy fanlarda xalqaro munosabatlar yo'nalishining kengroq integrativ dasturi doirasidagi turli nazariy yondashuvlar va mavzularni<sup>10</sup>, xususan, harbiy mojarolar, strategik masalalar va milliy xavfsizlikni o'rganadigan keng tadqiqot maydoniga ega bo'lgan akademik soha hisoblanadi. Bu ma'noda "xalqaro xavfsizlik" tushunchasi va uning insoniyat tarixi davomidagi evolyutsiyasi, Sharq va G'arb jamiyatlarining xavfsizlik paradigmasi hamda falsafasining rivojlanish dinamikasi, ularning ortida turgan tarixiy, siyosiy, mafkuraviy, madaniy omillar va jarayonlarning qiyosiy tahlili xalqaro xavfsizlik tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek, ushbu o'zgarishlarning asosiy sabablarini anglashimizga ilmiy zamin yaratadi. Mutaxassislarning fikricha, xavfsizlikni "harbiy" sohadan "fuqarolik" fan sohasiga aylanishida ikki omil katta ta'sir ko'rsatgan: 1) Yadro qurollari; 2) Sovuq urush. Ushbu ikki omil xavfsizlikning noharbiy jihatlariga, masalan, ideologik (mafkuraviy), iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, energetik barqarorlik va boshqa yo'nalishlariga urg'u berila boshladi. Vaqt o'tishi bilan kapitalizm bilan bir qatorda, aholi, energetika, urbanizatsiya va sanoatlashtirish sohasidagi o'zgarishlar global miqyosda ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik muammolarini keltirib chiqardi<sup>11</sup>.

<sup>8</sup> Sevan Nişanyan, Sözlernin Soyağacı, Everest Yayınları, İstanbul, 2009, s.219.

<sup>9</sup> Kerr Pauline, "Human Security", (ed.Alan Colins), Contemporary Security Studies, Oxford, Oxford University Press, 2007, pp.89-108.

<sup>10</sup> Barry Buzan and Lene Hansen, 2009, The Evolution of International Security Studies. (New York: Cambridge University Press) pp.4-6.

<sup>11</sup> Keith Krause and Michael C. Williams. 1996. Broadening the Agenda of Security Studies: Politics and Methods. International Studies Review 40(2) pp.229–254.

Xalqaro xavfsizlik tadqiqotlari, birinchi navbatda, G'arb mavzusi va mahsuli ekanligi, asosan, Shimoliy Amerika, Yevropa va Avstraliyada, aynan shu g'arbiy dunyoda shakllangan yondashuvlar asosida ko'plab markazlarda hamda akademik doiralarda yuritilganligini ta'kidlash lozim. Boshqa ko'plab sohalar kabi xavfsizlik sohasini ham G'arbda paydo bo'lishi va rivojlanishiga asosiy sabab uzoq yillar davom etgan G'arb davlatlarining mustamlakachilik siyosati edi<sup>12</sup>. Shu nuqtayi nazardan, bu (shimol) markaz va (janub) chekka mamlakatlar o'rtasidagi farqni ochib berdi<sup>13</sup>. Shimol va janubga bo'linishda G'arb davlatlari o'z mamlakatlari manfaatlaridan kelib chiqib, AQSh va Yevropa kabi gegemon markaz davlatlari tomonidan resurs nazorati bo'yicha shakllangan xavfsizlik strategiyalariga amal qildilar. Bu keyinchalik xalqaro xavfsizlik borasida G'arb va Sharqning o'ziga xos yondashuvlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, 1980-yillarda "Uchinchi dunyo" va "Postkolonial xavfsizlik" yondashuvlari vujudga keldi va ular, asosan, mustamlakachilikdan keyingi uchinchi dunyo davlatlarida xavfsizlik masalalarini o'rgandi<sup>14</sup>. Tadqiqotchi olim Muhammed Ayubning fikricha, davlatlar tizimi birlamchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar yoki tizimga kech kiruvchi (uchinchi dunyo davlatlari) aktordan iborat<sup>15</sup>. "Taraqqiyot" (*Development*) va "Qaramlik" (*Dependency*) yondashuvlaridan farqli o'laroq, "Uchinchi dunyo xavfsizligi jumbog'i" (*Third World security predicament*) uchinchi dunyo davlatlarini davlat qurish jarayonlarida duch keladigan ko'p qirrali xavfsizlik muammolarini tavsiflaydi<sup>16</sup>.

Bizning fikrimizcha, xavfsizlik, xususan, xalqaro xavfsizlik borasida G'arb yondashuvi, paradigmasi hali-hamon o'zining ustun mavqeiga ega, biroq Xitoy va Hindistonning global kuch markazlariga aylanib borayotganligi natijasida xavfsizlik va xalqaro xavfsizlikka nisbatan an'anaviy va G'arb yondashuvlarining tanqid qilinishi ortib bormoqda va muqobil xalqaro xavfsizlik konsepsiyalari ilgari surilmoqda.

**"Xalqaro xavfsizlik tizimining shakllanishi va rivojlanishida AQShning o'rni"** deb nomlangan ikkinchi bobida jahon siyosati va xavfsizligida AQShning tutgan o'rni, AQSh xavfsizlik paradigmasining shakllanishida mintaqaviy va global xavfsizlik omili, xalqaro xavfsizlik tizimidagi muammolarga AQSh yondashuvlari hamda strategiyasi tahlil qilingan va ochib berilgan.

Xalqaro xavfsizlik borasida G'arb paradigmasining ustunligi nafaqat xavfsizlik borasidagi ilm-fanning G'arbda rivojlanganligi, balki AQShning dunyo yetakchiligi bilan ham belgilanadi. AQSh jahon siyosati va xalqaro xavfsizlik tizimida yetakchilikni bosqichma-bosqich qo'lga kiritganini ta'kidlash lozim.

---

<sup>12</sup> Williams, Paul D., (2008), "Security Studies: An Introduction", Routledge, Taylor & Francis Group, London and New York, p.27.

<sup>13</sup> Spivak, Gayatri C. (1999) A Critique of Postcolonial Reason: Toward a History of the Vanishing Present, Cambridge MA: Harvard University Press, p.18.

<sup>14</sup> Qarang: Muhammed Ayoob, "Security in the Third World: The Worm about to Turn?", International Affairs, Vol. 60, No 1, 1983, pp. 41-51; Muhammed Ayoob, The Third World Security Predicament: State-Making, Regional Conflict and International System, Boulder, Lynne Rienner, 1995; Caroline Thomas, "New Directions in Thinking about Security in the Third World", Ken Booth (edit.) New Thinking about Strategy and International Security, London, Harper Collins, 1991.

<sup>15</sup> Ayoob, "Security in the Third World", o'sha manba, p. 45.

<sup>16</sup> Muhammed Ayoob, "The Security Problematic of the Third World", World Politics, Vol. 43, No 2, 1991, p. 258.

Okeanorti davlati, dastlab, o‘z ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilib, “Monro” va “Manifest Distiniy” doktrinalari bilan ko‘proq mintaqaviy yoki izolyatsion tashqi siyosat yuritishni maqbul deb bildi<sup>17</sup>. Biroq XX asr boshlaridagi jahon sahnasidagi global siyosiy o‘zgarishlarda AQShning chetda qolishi uning manfaatlari va xavfsizligiga zid bo‘lishini anglab yetdi<sup>18</sup>.

AQSh zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan global xavfsizlik arxitekturasi, asosan, AQShning tashabbuslari va manfaatlari bilan bog‘liq. Bu jarayon o‘zining harbiy, iqtisodiy va diplomatik qudrati orqali amalga oshirilib, XX asrning birinchi choragidan XXI asr boshlariga qadar davom etib kelmoqda.

Birinchi jahon urushi AQShning xalqaro siyosat ishlarida muhim burilishi bo‘ldi va birinchi marta Yevropa ishlariga aralashishini ta‘minladi. AQSh uchun Birinchi jahon urushi barcha sohalaridagi manfaatlarini himoya qilish bilan birga, “dunyoni demokratiya uchun xavfsiz qilish” mafkuraviy missiyasini ham amalga oshirish majburiyatini o‘rtaga qo‘ydi<sup>19</sup>. AQSh Yevropa davlatlariga katta miqdorda qarz berish orqali ularni moliyaviy jihatdan o‘ziga bog‘lay oldi. Ikkinchi jahon urushi AQSh uchun agressiv kuchlar – Yaponiya, Germaniya va Italiyaga qarshi kurash orqali dunyoda tinchlik va inson huquqlarini himoya qilish hamda mavjud xalqaro tizimni tubdan o‘zgartirish ishlarida yetakchi bo‘lganini aytishimiz mumkin.

AQShning mintaqaviy va global xavfsizlik paradigmasi ko‘p jihatdan dunyoda tinchlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni himoya qilishga qaratilganligini e‘tirof etish kerak. Shu bois ham birinchi va ikkinchi jahon urushlarida agressiv davlatlarga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin kommunizm mafkurasi ham erkin dunyo tamoyillariga zid edi. Siyosatshunos John Mearsheimer yozganidek, “Sovuq urush urug‘lari Yaltada ekilgan edi, u yerda AQSh va Sovet Ittifoqi o‘rtasidagi urushdan keyingi dunyo tartibining qarama-qarshi maqsadlari yaqqol namoyon bo‘ldi”<sup>20</sup>. Shuning uchun, AQSh Sovet Ittifoqi ekspansiyasiga qarshi Yevropa, Koreya yarim oroli, Yaqin Sharqda kurash olib bordi. Bu kurashda Sovet Ittifoqiga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarshi chiqish emas, balki uning ta‘sirini diplomatik, iqtisodiy va harbiy vositalar orqali chegaralash strategiyasini qo‘lladi va muvafaqqiyatga erishdi. Shunday qilib, AQSh XIX asrda Ispaniyani, XX asr birinchi yarmida Yaponiya va Germaniyani, XX asr ikkinchi yarmida Sovet Ittifoqining global yetakchilikka bo‘lgan intilishlarini pasaytirib, ushbu rolni o‘zi qo‘lga kiritganini bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan strategiya sifatida baholashimiz mumkin.

Super kuch sifatida AQSh tarixiy jihatdan o‘z xavfsizlik siyosatini, urushlar, geosiyosiy keskinliklar, yadro qurollari tarqalishi, terrorizm va kiber tahdidlar kabi turli xavf-xatarlarga moslashtirib kelgan. Ushbu tahdidlarning har biri AQShdan

---

<sup>17</sup> Walter LaFeber. (1998). “The New Empire: An Interpretation of American Expansion, 1860-1898”, Cornell University Press.

<sup>18</sup> Kissinger, H. A. (1966). Domestic Structure and Foreign Policy. Daedalus, 95(2), pp. 503-529.

<sup>19</sup> Ikenberry, G. J. (2011). “The Future of the Liberal World Order: Internationalism After America.” Foreign Affairs, 90(3), pp.56-68.

<sup>20</sup> John J. Mearsheimer. (2014). “The Tragedy of Great Power Politics”, W. W. Norton & Company, p.592.

mudofaa, diplomatiya va xalqaro hamkorlikni muvozanatli ushlab, mintaqaviy va global barqarorlikni saqlash uchun ko'p qirrali yondashuvni ishlab chiqishni talab qildi. Tarixchi Paul Kennedy ta'kidlaganidek, "BMT AQShning jamoaviy xavfsizlik va ko'p tomonlama munosabatlarga asoslangan yangi dunyo tartibini yaratish istagining aksi edi"<sup>21</sup>. BMTdan tashqari, AQSh urushdan keyingi jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirishga qaratilgan boshqa xalqaro institutlarni yaratishda markaziy rol o'ynadi. 1944-yildagi Bretton-Vuds konferensiyasi xalqaro iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining tashkil etilishiga olib keldi. AQSh dollari jahonning zaxira valyutasiga aylandi, bu esa, AQShning hukmron iqtisodiy kuch sifatidagi mavqeini yanada mustahkamladi. Hans Morgentau ta'kidlaganidek, Bretton-Vuds konferensiyasi AQSh dollarini global pul tizimining asosi sifatida belgilab berdi, boshqa valyutalar dollar kursiga bog'landi, dollar esa, oltin bilan konvertatsiya qilinadigan bo'ldi<sup>22</sup>.

1945-yilda Ikkinchi jahon urushi yakunlangach, AQSh xalqaro xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, asosiy tashabbuslarni ilgari surdi va amalga oshira oldi. Xususan:

- AQSh Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) tashkil etilishini hamda uning xalqaro mojarolarni hal qilish va tinchlikni saqlashda markaziy organ sifatida qo'llab-quvvatladi. Shu bilan birga, Xavfsizlik Kengashidagi doimiy a'zolik orqali AQSh o'zining global liderligini mustahkamladi;

- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali xavfsizlikka hissa qo'shish uchun Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki kabi institutlar yaratishda bosh-qosh bo'ldi.

AQShning xalqaro xavfsizlikka bo'lgan yondashuvi "Sovuq urush" sharoitida o'zgardi. AQSh harbiy alyanslar tizimi – NATO ni tashkil etish (1949) orqali G'arbiy davlatlar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynashni boshladi. Shu sharoitdan foydalanib, yadroviy qurollarni nazorat qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar (masalan, Yadro qurollarini tarqatmaslik shartnomasi) tashabbuskori bo'ldi va xalqaro xavfsizlik tizimida uning pozitsiyalari mustahkamlanishiga erisha oldi.

1991-yilda Sovet Ittifoqi qulagach, AQSh global xavfsizlik tizimida yetakchi davlat sifatida rol o'ynashni boshladi. Zero, raqobatchi qutb qulagach, AQSh o'zini dunyo xavfsizligining asosiy kafolatchisi sifatida ko'rsatishni boshladi. Ammo bunday imkoniyatlar turli hududlarda harbiy intervensiyalarni amalga oshirishiga yo'naltirildi (*Iroq (1991, 2003), Afg'oniston (2001) va boshqa hududlardagi harbiy operatsiyalari*). Harbiy intervensiyalar esa, o'z navbatida, xalqaro xavfsizlikdagi tamoyillarning buzilishiga olib keldi hamda AQShning "ishonchli xavfsizlik qo'riqchisi" nomiga putur yetkazdi. Bunday salbiy qiyofadan chiqish uchun AQSh yangi xalqaro loyihalarni amalga oshirishi kerak edi. 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so'ng, AQSh xalqaro xavfsizlikni ta'minlash doirasida

---

<sup>21</sup> Paul Kennedy. (2007). "The Parliament of Man: The Past, Present, and Future of the United Nations", Knopf Doubleday Publishing Group, p.384.

<sup>22</sup> Morgenthau, H. (1945). "Bretton Woods and International Cooperation." *Foreign Affairs*, 23(2), pp.182–194.

yangi paradigmalarni shakllantirdi. Global terrorizmga qarshi koalitsiyalar tuzish va Afg‘oniston urushi bu jarayonning asosiy elementlari bo‘lib xizmat qildi.

AQSh zamonaviy xavfsizlik tizimida o‘zining hal qiluvchi o‘rnini saqlab qolishda texnologiyalar rivojlanishi va kiberxavfsizlik masalalariga e‘tiborni kuchaytirdi. Yirik texnologik kompaniyalar va harbiy xizmatlar orqali AQSh xalqaro miqyosda kiber tahdidlarga qarshi kurashda yetakchi bo‘lishga urinmoqda. Bundan tashqari, AQSh sun‘iy intellekt, kosmik texnologiyalar va raqamli xavfsizlik sohasida o‘zining strategik ustuvorligini saqlab kelmoqda.

Umuman olganda, AQSh tashqi siyosati va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi yondashuvlarida turli maktablar: realizm, neorealizm, liberalizm, neoliberalizm, poststrukturalizm, konstruktivizm va boshqa yondashuvlar doirasida xavfsizlik va tashqi siyosat strategiyalarini olib borganini, ya‘ni barcha xavfsizlik va tashqi siyosiy faoliyati ilmiy asoslanganini ta‘kidlash kerak<sup>23</sup>. Paul Williams o‘zining “Security Studies: An Introduction” kitobida xavfsizlik paradigmalari siyosatchilarning tushunchalari va xalqaro tizim haqidagi yondashuvlarida chuqur ildiz otganini yozadi. P.Williamsning ta‘kidlashicha, har qanday davlat uchun xavfsizlik paradigmasining shakllanishi tashqi tahdidlar va ichki zaifliklar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir orqali shakllanadi<sup>24</sup>.

Sovuq urush tugaganidan keyin AQSh global kuch sifatida xalqaro siyosatda yakka hukmronlikni o‘rnatdi. H.Morgentau o‘zining “Politics Among Nations” asarida xalqaro siyosat hokimiyat uchun kurash ekanligini, AQSh gegemon davlat sifatida o‘z ta‘siridan global barqarorlikni saqlash, o‘z hukmronligini ta‘minlash uchun foydalanishi kerakligini ta‘kidlaydi<sup>25</sup>. Natijada, AQSh xalqaro muammolarni hal qilishda mustaqil qarorlar qabul qilishi, ko‘plab davlatlarning ichki ishlariga aralashuvi xalqaro huquq va xalqaro muvozanatning buzilishiga ham sabab bo‘ldi. Bu har jihatdan AQShga qimmatga tushdi va dunyo hamjamiyatida obro‘cini birmuncha tushirdi. Shu bilan birga, yangi tahdidlar paydo bo‘ldi va dunyo yetakchiligi uchun yangi kuch markazlari (Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya va boshqalar) o‘rtaga chiqdi. Ularning orasidan Xitoy AQSh uchun katta raqib sifatida namoyon bo‘ldi. Neorealist olim J.Mearsheimer: “Xitoyning yuksalishi so‘nggi bir necha o‘n yilliklar ichida jahon siyosatidagi eng muhim rivojlanishdir, chunki u Qo‘shma Shtatlarning hukmron global kuch sifatidagi mavqeini to‘g‘ridan to‘g‘ri shubha ostiga qo‘yadi”<sup>26</sup>, deb ogohlantirdi. Xitoyning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy mo‘jiza, balki jahon e‘tiborini Osiyoga qaratgan strategik o‘zgarish bo‘ldi, Pekinning Janubiy Xitoy dengizi kabi hududiy bahslarda o‘z kuchini oshirishi buyuk kuchlar raqobatining yangi davri haqida xavotir uyg‘ota boshladi.

Dissertatsiyaning **“Xalqaro xavfsizlik tizimining arxitekturasiga Xitoyning qarashlari va yondashuvlari”** deb nomlangan uchinchi bobida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Xitoyning o‘rni va ta‘siri, mintaqaviy va global

<sup>23</sup> Xavfsizlik borasidagi maktablar haqida dissertatsiyaning 1-bobida tanishishingiz mumkin.

<sup>24</sup> Paul D. Williams. (2023). “Security Studies: An Introduction”, Routledge; 4th edition, p.728.

<sup>25</sup> Hans Morgenthau, Kenneth Thompson., David Clinton. (2005). “Politics Among Nations”, McGraw-Hill Education; 7th edition, p.752.

<sup>26</sup> John J. Mearsheimer. (2014). “The Tragedy of Great Power Politics”, W. W. Norton & Company, p.592.

xavfsizlik tizimining shakllanishida Xitoy yondashuvining o'ziga xos xususiyatlari, xalqaro xavfsizlik tizimining barqarorligi bo'yicha Xitoy yondashuvlari va uning ahamiyati tahlil qilingan va ochib berilgan.

Xitoyning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ta'siri juda tez rivojlanib borayotgani Xitoyga xos mentalitet bilan ochiqlanmoqda<sup>27</sup>. Hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida Xitoy revizionist emas, ko'proq "status-kvo" tarafdori ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Chunki Xitoy bugungi xalqaro munosabatlar tizimidan eng ko'p foyda olgan davlat sifatida baholanmoqda<sup>28</sup>. Tinch rivojlanish va ochiq savdo siyosati Xitoy uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu bois, Xitoy mavjud xalqaro munosabatlar tizimini o'zgartirishdan ko'ra, uni saqlab qolish va o'z manfaatlarini yo'lida rivojlantirishga harakat qilmoqda<sup>29</sup>. Buni Xitoyning Birlashgan millatlar tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Jahon savdo tashkiloti, Katta yigirmatalik, Osiyo taraqqiyot banki, BRICS, Shanhay hamkorlik tashkiloti, ASEAN kabi xalqaro tashkilotlar va platformalar doirasida ko'p tomonlamalik tizimni qo'llab-quvvatlashi va mavjud xalqaro tashkilotlar faoliyatini, ularni ta'sir qilish mexanizmlarini rivojlantirish tarafdori ekanligi bilan asoslash mumkin.

Xitoyning revizionist va agressiv siyosati o'zi uchun qimmatga tushishini juda yaxshi biladi. Shu bois, Xitoy Den Syaopingning "Islohot va ochiqlik siyosati (改革开放- Gǎigé kāifàng)", Si Szingpinning "Xitoy orzusi (中国梦- Zhōngguó mèng)" siyosati tinch va barqaror rivojlanishga qaratilgan edi<sup>30</sup>. Shu bilan birga, Xitoyni xalqaro siyosat va xalqaro xavfsizlikda hech bir narsani o'z manfaatlaridan ustun qo'ymasligini ta'kidlash lozim. Xitoy tinch yuksalishining ostida "gong (貢 gòng)" (vassal yoki o'lpon) tizimi yotganligi ilgari suriladi. Ushbu tizim orqali o'tmishda bo'lganidek, hozirda ham Xitoyning kuch va qudratini tan olgan, unga tahdid qilmaydigan, uni va fuqarolarini hurmat qilib, do'stona munosabatda bo'lgan davlatlarga iqtisodiy va moliyaviy yordam berish orqali o'ziga qaramligini ortirishga harakat qilmoqda va buni uddasidan chiqmoqda<sup>31</sup>. Albatta, bu ishni bir paytlar Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh ham beg'araz yordam orqali dunyoni o'z hukmronligi ostiga olganini ta'kidlab o'tish lozim<sup>32</sup>.

Xitoylik olimlarning fikricha, barcha belgilar muvaffaqiyatsiz davlatlardan ko'ra, muvaffaqiyatsiz dunyo tartibiga ishora qiladi. Shu bois, xalqaro xavfsizlik tizimini barqarorligi bo'yicha bir butun dunyoni anglatuvchi "Tyansya (天下

---

<sup>27</sup> Бекмуродов И. Хитой ташқи сиёсати менталитети: янги аср эҳтиёжи. Шарқшунослик журнали, № 1. 2015. – 31-39 б.; Hung-Ming Ku, The Spirit of the Chinese People. Independently published, 2017, 182 p.

<sup>28</sup> Alastair Iain Johnston, "Is China a Status Quo Power", International Security, vol. 27, 2003, pp. 5-56.

<sup>29</sup> Zheng Bijian, "China's Peaceful Rise and Opportunities for the Asia-Pacific Region", 2004, China's Peaceful Rise Speeches of Zheng Bijian 1997-2005, Washington, Brookings Institution Press, 2005, p. 32.

<sup>30</sup> Adamson, B. (2004). Modernization under Deng Xiaoping, 1977-1993. China's English: A History of English in Chinese Education, Hong Kong University Press, pp.129-168; Li, J. (2022). China under Xi Jinping. Journal of International Affairs, 75(1), pp.261-272.

<sup>31</sup> Latham Andrew (2007). "The Confucian Continuities of Chinese Geopolitical Discourse", Macalester International, 18 (27): 243-251; Fairbank John (1942). "Tributary Trade and China's Relations with the West", The Far Eastern Quarterly, 1 (2): 129-149.

<sup>32</sup> Khong Yuen Foong (2013), "The American Tributary System", The Chinese Journal of International Politics, 6 (1): 1-47.

(tiānxià)” mafkurasini ilgari suradi<sup>33</sup>. *Tyansya* dunyoning umumiy xohishlarini aks ettiruvchi “butun koinot xavfsizligi” tushunchasini qamrab oladi. Shuningdek, geografik inklyuziyadan tashqari, barcha odamlar yoki xalqlarni ham o‘z ichiga oladi. U barcha odamlarning qalbi yoki insoniyatning umumiy irodasi ma’nosida ishlatiladi hamda alohida mamlakatlarning manfaatlarini emas, balki butun insoniyatning umumiy manfaatlarini himoya qiladigan universal institutlarni yaratishga qaratilgan<sup>34</sup>. Bu yondashuvni idealistik yondashuv sifatida ko‘rishimiz mumkin, biroq har jihatdan kuchayib borayotgan Xitoy AQSh o‘rnatgan va ilgari surayotgan qadriyatlar tizimiga shu tushunchalar doirasida qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borishini ilgari surishimiz va xitoycha ushbu yondashuv ostida Xitoyning yashiringan sirlari va manfaatlari borligini ta’kidlashimiz o‘rinli.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, so‘nggi o‘n yillikda Xitoy xalqaro xavfsizlik tizimi arxitekturasida muhim o‘rin egallashni maqsad qilib, global darajadagi mavjud yondashuvlarini muntazam tarzda takomillashtirishga harakat qilmoqda. Xitoyning bu boradagi qarashlari va strategiyalari o‘zining ichki manfaatlari, geosiyosiy o‘rni hamda global kuchlar muvozanatini hisobga olgan holda shakllanadi.

Xitoy xalqaro xavfsizlikni keng ko‘lamli tizim sifatida qabul qiladi. Bu nafaqat harbiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik xavfsizlikni ham qamrab oladi. Bu borada rasmiy Pekin quyidagi tamoyillarni taklif etadi:

- milliy suverenitet va hududiy daxlsizlik: har qanday xalqaro xavfsizlik mexanizmi davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga asoslanishi lozimligi;

- ko‘p qutbli dunyo: global xavfsizlik tizimida faqat AQSh yoki G‘arb davlatlari hukmronligi emas, ko‘p tomonlama hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash zarurati;

- hamkorlikka asoslangan taraqqiyot va umumiy xavfsizlik: davlatlarning xavfsizlik masalalarining xalqaro munosabatlarning barcha subyektlari tomonidan muhokama qilish va birgalikda hal etilishi lozimligi.

Xitoy 2022-yilda “Global xavfsizlik tashabbusi”ni taklif etgan edi. Mazkur tashabbus xalqaro xavfsizlik bo‘yicha yangi qarash sifatida ilgari surildi. Tashabbus: mintaqaviy mojarolarni muloqot va kelishuv orqali hal qilish; terrorizmga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish; iqlim o‘zgarishi va pandemiyalar kabi noan’anaviy xavfsizlik tahdidlariga birgalikda javob berish yo‘nalishlarida hamkorlik rejalarini taqdim etadi.

Xitoy xalqaro xavfsizlik tizimini mustahkamlashga, mintaqaviy xavfsizlikka asosiy urg‘u beradi. Bunda, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrika davlatlari bilan hamkorligi xalqaro xavfsizlik tizimida o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Xitoy mintaqaviy tashkilotlar, xususan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) doirasida o‘z manfaatlarini ilgari surib, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga intilmoqda.

---

<sup>33</sup> Carlson, A. “Moving Beyond Sovereignty? A Brief Consideration of Recent Changes in China’s Approach to International Order and the Emergence of the Tianxia Concept”, *Journal of Contemporary China*, Vol. 20, No. 68, 2011, p. 95 (pp. 89-102).

<sup>34</sup> Zhao Tingyang, “A Political World Philosophy in Terms of All-UnderHeaven (Tian-xia)”, *Diogenes*, Vol. 56, No: 5, 2009, pp.5-18.

Xitoy xalqaro xavfsizlik tizimini saqlab qolishga intilar ekan, undagi ayrim tamoyillarni qayta shakllantirishga harakat qilmoqda. Bunda, Xitoy o'zining iqtisodiy qudrati, mintaqaviy hamkorlikdagi tajribasi va diplomatik yondashuvlariga asoslanmoqda. Shu bilan birga, Xitoyning bu boradagi muvaffaqiyati xalqaro hamjamiyat tomonidan uning tashabbuslari qanchalik qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq. Xitoyning xalqaro xavfsizlikka oid yondashuvi dunyoda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan takomillashgan modelni taklif qiladi, biroq bu jarayon murakkab va qiyinchiliklardan iborat.

Umuman olganda, AQSh va Xitoyning xalqaro xavfsizlik yondashuvlari global kuchning ikki qutbini tashkil etadi, har biri milliy manfaatlarni himoya qilish, ittifoqlarni boshqarish va global xavfsizlik muammolarini hal qilish bo'yicha o'ziga xos yondashuvlarga ega. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh liberal institutsionalizm, harbiy ittifoqlar va iqtisodiy gegemonlik orqali zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimini shakllantirdi. Xitoy esa, so'nggi o'n yilliklarda o'zining tarixiy an'analari va o'sib borayotgan kuchidan foydalangan holda xavfsizlik yondashuvini shakllantirdi, bu esa, natsionalizm, regionalizm va ko'p qutbli dunyo tartibiga bo'lgan intilishlarni birlashtiradi. Har ikkala mamlakatning xalqaro xavfsizlikka bo'lgan yondashuvlari xalqaro tizimning barqarorligi uchun katta ta'sirga ega va ushbu ikki yondashuvni samarali ravishda integratsiya qiladigan muvofiqlashtirilgan xavfsizlik arxitekturasi hozirgi va kelajakdagi global xavfsizlik muammolarini boshqarish uchun zarurdir.

**“Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh va Xitoyning o'rni va yondashuvlarining qiyosiy tahlili”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida AQSh va Xitoy raqobati hamda uning global xavfsizlikka tasiri, AQSh va Xitoyning xalqaro xavfsizlik arxitekturasi uchun uyg'un konsepsiya yaratish muammolari va istiqbollari, o'zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasida O'zbekiston uchun ilmiy hamda amaliy xulosalar atroflicha tahlil va tadqiq qilingan.

Global xavfsizlik tizimi bugungi kunda ro'y berayotgan davlatlararo urush va to'qnashuvlar, ichki nizo va ixtiloflar natijasida tobora beqarorlashib bormoqda. Xalqaro munosabatlarda, realistlar ta'biri bilan aytganda, “anarxik tusga” kirib borayotgan hozirgi xalqaro tizimda, Yevropa mintaqasi xavfsizligiga jiddiy tahdid uyg'otayotgan Rossiya-Ukraina urushi, Yaqin Sharqdagi davlatlararo majoralarning yangi tus olishi bilan bir qatorda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi “buyuk kuchlar” raqobati ham yanada keskinlashib, ushbu hudud endilikda eng muhim strategik to'qnashuv makoni sifatida namoyon bo'lmoqda.

Darhaqiqat, AQSH va Xitoy o'rtasidagi strategik raqobat so'nggi yillar ichida mintaqaviy va global barqarorlikka chuqur ta'sir ko'rsatadigan asosiy belgilovchi omil darajasidan chiqib, zamonaviy xalqaro munosabatlar paradigmasiga aylandi<sup>35</sup>. Xitoyning yuksalishi bilan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi AQSh gegemonligi va kuchayib borayotgan Xitoy o'rtasidagi tobora qizg'in kurashga guvoh

---

<sup>35</sup>Stephen M.Walt, 2024., ‘The Future of U.S.-China Relations. What Can International Relations Theory’s Tell US?’ in Christopher S.Chivvis (ed.) U.S.-China Relations for the 2030: Toward a Realistic Scenario for Coexistence, Carnegie Endowment for International Peace, Chapter 3, pp.27-37.

bo‘lmoqda<sup>36</sup>. Shu bilan bir qatorda, Osiyo-Tinch okeani va undan tashqaridagi mamlakatlarning strategik tanlovlarini shakllantirishiga o‘z jiddiy ta‘sirini ko‘rsatgan holda xalqaro siyosiy, harbiy va iqtisodiy dinamikani ham belgilaydi. Yanada keng ta‘bir bilan aytganda, zamonaviy xalqaro tizimning ziddiyatli ravishda transformatsion o‘zgarishlarga duch kelayotgan “yangi dunyo tartiboti” shakllanishida xalqaro hamkorlik va taraqqiyotni ta‘minlash uchun turli muammolar va imkoniyatlar yaratadi<sup>37</sup>.

Ma‘lumki, bugungi kunda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi jahon iqtisodiyoti va savdosining markaziga aylanib, jahonning buyuk davlatlari butun diqqat-e‘tiborini qaratadigan mintaqa sifatida global raqobatning yangi markaziga aylandi<sup>38</sup>. Jahon bankining 2015-yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyoning 30 ta eng yirik iqtisodlarining 11 tasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bo‘lib, dunyo yalpi ichki mahsulotining 59 foizi aynan ularga tegishli bo‘lgan<sup>39</sup>. Ushbu hudud agar 1960-yillarda dunyo ishlab chiqarishining faqatgina 12 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, 2012 yilga kelib, 28 foizini, 2020-yilga kelib esa, 50 foizdan ko‘pini tashkil qildi<sup>40</sup>. Bu shubhasiz, bugun va yaqin kelajakda ushbu mintaqaga hukmron bo‘lish dunyoga hukmron bo‘lishni anglatadi. XX asrning boshlarida AQSh Davlat kotibi John Milton Hay shunday degan: “O‘rta yer dengizi – bu o‘tmishning dengizidir, Atlantika – hozirgi kunning dengizi, Tinch okeani esa – kelajakning dengizi”<sup>41</sup>. Ushbu so‘zlarning naqadar to‘g‘riligini zamonning o‘zi ko‘rsatmoqda. Ba‘zi olimlar ushbu mintaqadagi AQSh va Xitoy raqobatini Fukidid tuzog‘iga o‘xshatishmoqda<sup>42</sup>. Shunday ekan, bu strategik va geosiyosiy raqobat xalqaro tizimning kelajagi haqida ko‘p narsalarni bashorat qilishi mumkin. 2023-yilda AQSh-Xitoy munosabatlari, asosan, texnologiya, savdo va harbiy sohalarda yaqqol namoyon bo‘ldi.

AQSh va Xitoy xalqaro xavfsizlik arxitekturasini shakllantirishda qarama-qarshi yondashuvlar bilan birga, uyg‘un konsepsiya va yondashuvlarga ham ega. Ikki global kuch davlatlarining dunyo tartibotini yaratishdagi o‘ziga xosliklari qadriyatlar bilan bog‘liq hisoblanadi. AQSh uchun demokratiya, inson huquqlari, liberalizm ustuvorlik kasb etsa<sup>43</sup>, Xitoy uchun ichki ishlarga aralashmaslik, davlat butunligi, an‘anaviy iyerarxik boshqaruvga ega kuchli davlat yondashuvi va

<sup>36</sup> Christopher Brook, Anthony McGrew, 2013, *Asia-Pacific in the New World Order*, Routledge, November, Part I Evolution, pp.11-67.

<sup>37</sup> Christopher Brook, Anthony McGrew, 2013, *Asia-Pacific in the New World Order*, Routledge, November, Part II The New Regional Order, pp.67-229.

<sup>38</sup> Gottemoeller, Rose, 2015, *The role of the United States in Asia Pacific security*. The U.S. Department of State. <https://2009-2017.state.gov/t/us/2015/239922.htm>

<sup>39</sup> World Bank. *World Development Indicators* // URL: <https://data.worldbank.org>

<sup>40</sup> World Bank. *World Development Indicators*// URL: <https://data.worldbank.org>

<sup>41</sup> Владимир В. Безопасность в АТР: проблемы и перспективы // *Обозреватель — Observer*. 1993. № 27, с.31.

<sup>42</sup> Graham Allison. (2017). “Destined for War: Can America and China Escape Thucydides’s Trap?” Houghton Mifflin Harcourt; First Edition; Ван Цунюэ. ‘Ловушка Фукидида’ в китайско-американских отношениях./ *Общество: политика, экономика, право*. 2023. Номер 5., с.56-61. <https://cyberleninka.ru/article/n/lovushka-fukidida-v-kitaysko-amerikanskih-otnosheniyah/viewer>; Destined War Can America and China Escape Thucydides <https://www.hks.harvard.edu/publications/destined-war-can-america-and-china-escape-thucydides-trap>

<sup>43</sup> Robert Keohane, Joseph Nye Jr. (2011). “Power and Interdependence.” Pearson; 4th edition; Ikenberry, G. J. (2011). “Dilemmas and Pathways of Liberal International Order.” *Liberal Leviathan: The Origins, Crisis, and Transformation of the American World Order*, Princeton University Press, Vol.141, pp.279–332.

boshqalar muhim o‘rin tutadi<sup>44</sup>. Shu bilan birga, ikki davlatning harbiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy, texnologik jihatdan kuchli davlatlar ekanligi xalqaro xavfsizlikni va barqarorlikni ta‘minlashda mas‘uliyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu o‘zaro ishonchga asoslangan dunyoni qurish uchun turli global muammolarni, xususan, yadro qurollarini tarqatmaslik, iqlim o‘zgarishining oldini olish, lokal mojarolarning global mojaroga aylanib ketmaslik choralarini ko‘rish, terrorizm, ekstremizm va uyushgan jinoyatchiliklarga qarshi kurash, turli kasalliklar va epidemiyalarning oldini olish, qashshoqlik va ocharchilikni bartaraf etish, xavfsiz va barqaror tijoratni rivojlantirish, texnologik hamkorlikni oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda. Ushbu omillarga birgalikda qarshi kurash va hamkorlik istiqbolda global xavfsizlik arxitekturasi uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilishi ehtimoli kattadir<sup>45</sup>.

O‘zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik tizimida O‘zbekistonning xalqaro siyosat va xalqaro xavfsizlik borasida o‘zining mustaqil pozitsiyasiga ega bo‘lishi har jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, xalqaro xavfsizlikka yondashuvlarda AQSh ilgari surayotgan dunyo tartiboti va Xitoy ta‘kidlayotgan dunyo birligi g‘oyalarining ta‘siriga tushib qolmaslik va ikki super kuch davlatlari bilan muvozanatlangan va manfaatdorlikka asoslangan tashqi siyosat olib borish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o‘zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasi an‘anaviy va noan‘anaviy tahdidlarga qarshi kurashda O‘zbekiston uchun ittifoqchilik munosabatlari va strategik hamkorlik aloqalari juda muhim o‘rin tutadi. Bu O‘zbekistonni G‘arb va Sharqning muvozanatini saqlashda, AQSh va Xitoy raqobatida milliy va mintaqaviy manfaatlarini saqlash va kuchaytirishda katta rol o‘ynaydi.

## XULOSA

Tadqiqot ishida zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh va Xitoyning o‘rni va roli chuqur tahlil qilinib, ikki davlatning global xavfsizlikka oid siyosat, strategik manfaatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta‘sirini o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

*birinchidan*, avvalgi G‘arb modeliga asoslangan xalqaro xavfsizlik arxitekturasi bugun zamon talablariga to‘liq javob bermasligini turli hududlarda sodir bo‘layotgan keskin qurolli nizolar urush darajasiga aylanayotgani, G‘arb va Sharq o‘rtasida qutblashish tendensiyasi kuchayib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Hozirgi xalqaro xavfsizlik tizimini qayta isloh qilish va uni barqaror holatga keltirish ishlarini, avvalo, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlamasdan amalga oshirib bo‘lmaydi;

*ikkinchidan*, Sharq xavfsizlik yondashuvlari, asosan, ikkiga – Postkolonial xavfsizlik yondashuvlari va Uchinchi dunyo xavfsizlik yondashuvlariga bo‘lingan holda, G‘arbning millat va davlatni o‘rganish orqali xavfsizlik paradigmasini va

---

<sup>44</sup> Huiyun Feng. (2007). “Chinese Strategic Culture and Foreign Policy Decision-Making.” Routledge; 1st edition, p.196.

<sup>45</sup> Charles A. Kupchan. (2013). “No One’s World: The West, the Rising Rest, and the Coming Global Turn.” Oxford University Press, p.272.

Yevrosentrik dunyo siyosati farazini tanqid qilganligi bilan ajralib turadi. Dunyo tartiboti va xalqaro xavfsizlik masalalariga muqobil ko‘z va fikrlar bilan qarashni ilgari surayotgan Sharq xavfsizlik paradigmasida qadriyatlar, davlatlarning suvereniteti, hokimiyat va rejim barqarorligi, ichki ishlariga aralashmaslik, iqtisodiy o‘shni ta‘minlash, Sharqning kamsitilishiga qarshi chiqish kabi jihatlar ustuvorlik ahamiyat kasb etadi;

*uchinchidan*, AQShning mintaqaviy va global xavfsizlik paradigmasi ko‘p jihatdan dunyoda tinchlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni himoya qilishga qaratilganligini e‘tirof etish mumkin. Shu bois ham, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida agressiv davlatlarga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin kommunizm mafkurasi ham erkin va demokratik dunyo tamoyillariga zid edi. Shu bois, AQSh Sovet Ittifoqi ekspansiyasiga qarshi Yevropa, Koreya yarim oroli, Yaqin Sharqda kurash olib bordi. Bu kurashda Sovet Ittifoqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi chiqish emas, balki uning ta‘sirini diplomatik, iqtisodiy va harbiy vositalar orqali chegaralash strategiyasini qo‘lladi va bu muvaffaqiyatli bo‘ldi. Shunday qilib, AQSh XIX asrda Ispaniyani, XX asr boshlarida Yaponiya va Germaniyani, XX asr ikkinchi yarmida Sovet Ittifoqining global yetakchilikka bo‘lgan intilishlarini yo‘qqa chiqardi va buni AQShning muvaffaqiyatli strategiyalari sifatida baholashimiz mumkin;

*to‘rtinchidan*, super kuch sifatida AQSh tarixiy jihatdan o‘z xavfsizlik siyosatini urushlar, geosiyosiy keskinliklar, yadro qurollari tarqalishi, terrorizm va kiber tahdidlar kabi turli xavf-xatarlarga moslashtirib kelgan. Ushbu tahdidlarning har biri AQShdan mudofaa, diplomatiya va xalqaro hamkorlikni muvozanatli ushlab, mintaqaviy va global barqarorlikni saqlash uchun ko‘p qirrali yondashuvni ishlab chiqishni talab qildi. Shu bois, AQSh tashqi siyosati va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi yondashuvlarida turli maktablar: realizm, neorealizm, liberalizm, neoliberalizm, poststrukturalizm, konstruktivizm va boshqa yondashuvlar doirasida xavfsizlik va tashqi siyosat strategiyalarini olib borganini, ya‘ni barcha xavfsizlik va tashqi siyosiy faoliyati ilmiy asoslanganini ta‘kidlash kerak. Jumladan, Okeanorti davlati, dastlab, o‘z ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilib, “Monro” va “Manifest Destiny” doktrinalari bilan ko‘proq mintaqaviy yoki izolyatsion tashqi siyosat yuritishni maqbul deb bilgan bo‘lsa, keyinchalik T.Ruzveltdan boshlab, prezidentlar AQSHni global yetakchilikka olib boradigan strategiyalar asosida faoliyat yuritdi;

*beshinchidan*, Xitoyning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va ta‘siri juda tez rivojlanib borayotganini Xitoyga xos mentalitet bilan tushuntirish mumkin. Hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida Xitoy revizionist emas, ko‘proq “status-kvo” tarafdori ekanligini ta‘kidlash mumkin. Buni Xitoyning Birlashgan millatlar tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Jahon savdo tashkiloti, Katta yigirmatalik, Osiyo taraqqiyot banki, BRICS, Shanxay hamkorlik tashkiloti, ASEAN kabi xalqaro tashkilotlar va platformalar doirasida ko‘p tomonlamalik tizimini qo‘llab-quvvatlashi va mavjud xalqaro tashkilotlar faoliyatini, ularni ta‘sir qilish mexanizmlarini rivojlantirish tarafdori ekanligi bilan asoslash mumkin.

Chunki Xitoy bugungi xalqaro munosabatlar tizimidan eng ko‘p foyda olgan davlat sifatida baholanmoqda. Gap shundaki, Xitoy tarixida Afyun urushlaridan, Yaponiya ishg‘olidan va Sovuq urush davridagi AQSh-SSSR qarama-qarshiliklaridan katta saboq chiqarganligi uchun uzoq vaqtdan beri “tinch yuksalish” konsepsiyasiga sodiq qolayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Xitoy taraqqiyotining asoslari Den Syaopinning “Islohot va ochiqlik siyosati (改革开放-Gǎigé kāifàng)” bilan boshlangan bo‘lsa, uning global kuchga aylanishi va boshqalarga o‘rnak bo‘la olish siyosati Si Szinpinning “Xitoy orzusi (中国梦-Zhōngguó mèng)” bilan ro‘y bermoqda;

*oltinchidan*, Xitoyning tinch rivojlanish strategiyasi faqat uning manfaatlariga mos bo‘lganicha saqlanib qolishi, aks holda har qanday agressiv siyosatga ham tayyor ekanligini ta’kidlash lozim. Xitoyning bu siyosati o‘tmishdagi “gong (貢 gòng)” (vassal yoki o‘lpon) tizimiga mos kelishini va ushbu tizim orqali o‘tmishda bo‘lganidek hozirda ham Xitoyning kuch va qudratini tan olgan, unga tahdid qilmaydigan, uni va fuqarolarini hurmat qilib, do‘stona munosabatda bo‘lgan davlatlarga iqtisodiy va moliyaviy yordam berish orqali o‘ziga qaramligini orttirishga harakat qilmoqda va buni uddasidan chiqmoqda. Xitoy mintaqaviy va global xavfsizlikda faol ishtirok etarkan, “yagona yoki bo‘linmas xavfsizlik”, “o‘zaro manfaatdorlik”, “barqaror kelajak” kabi chiroyli shiorlardan keng foydalanayotganligi va 2022-yilda Si Szinpin tomonidan e‘lon qilingan “Global xavfsizlik tashabbusi” xalqaro xavfsizlik masalasida Xitoyni nafaqat jozibador qilib ko‘rsatmoqda, balki global boshqaruvni shakllantirish va qarorlar qabul qilishda G‘arb kuchlarining an‘anaviy hukmronligiga qarshi chiqayotganligini hamda G‘arb xavfsizlik paradigmalari muqobil yondashuvlarni ilgari surayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu xitoylik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilayotgan xalqaro xavfsizlik tizimi barqarorligi bo‘yicha bir butun dunyoni anglatuvchi “Tyansya” mafkurasida yaqqol ko‘zga tashlanadi;

*yettinchidan*, AQSh va Xitoy raqobati Osiyo-Tinch okeani mintaqasida keskinlashib bormoqda, mintaqada yuzaga kelgan so‘nggi voqealar mintaqaviy va global xavfsizlik hamda strategik jihatdan nihoyatda jiddiy e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan tendensiyalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi Xitoy uchun ham, AQSh uchun ham hayotiy muhim va strategik mintaqasi hisoblanadi. Xitoy ushbu mintaqada nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rolini, balki harbiy-siyosiy rolini ham kuchaytirib bormoqda. Shuningdek, oxirgi paytlarda Amerika harbiy kuchlarining global qayta joylashuv jarayonlarini kuzatadigan bo‘lsak, o‘z harbiy qo‘shinlarini Afg‘onistondan olib chiqishi, Iroq va Yaqin Sharqdagi harbiy kontingentining qisqartirilishi va asosiy strategik e‘tibor yanada ko‘proq Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga qaratilishi aynan ushbu hudud yaqin va o‘rta muddatli kelajakda global raqobat maydoniga, xavfsizlik dilemmasiga boshqacha aytganda, Fukidid tuzog‘iga aylanishidan darak bermoqda;

*sakkizinchidan*, AQSh va Xitoy xalqaro xavfsizlik arxitekturasini shakllantirishda qarama-qarshi yondashuvlar bilan birga, uyg‘un konsepsiya va qarashlarga ham ega. Ikki global kuch davlatlarining dunyo tartibotini yaratishdagi o‘ziga xosliklari qadriyatlar bilan bog‘liq hisoblanadi. AQSh uchun demokratiya,

inson huquqlari, liberalizm ustuvorlik kasb etsa, Xitoy uchun ichki ishlarga aralashmaslik, an'anaviy iyerarxik boshqaruvga ega kuchli davlat yondashuvi va boshqalar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ikki davlatning harbiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy, texnologik jihatdan kuchli davlatlar ekanligi xalqaro xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlashda mas'uliyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu o'zaro ishonchga asoslangan dunyoni qurish uchun turli global muammolarni, xususan, yadro qurollarini tarqatmaslik, iqlim o'zgarishining oldini olish, lokal mojarolarni global mojaroga aylanib ketmaslik choralarini ko'rish, terrorizm, ekstremizm va uyushgan jinoyatchiliklarga qarshi kurash, turli kasalliklar va epidemiyalarning oldini olish, qashshoqlik va ocharchilikni bartaraf etish, xavfsiz va barqaror tijoratni rivojlantirish, texnologik hamkorlikni oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarda hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda. Ushbu omillarga birgalikda qarshi kurash va hamkorlik istiqbolda global xavfsizlik arxitekturasi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilish ehtimoli kattadir;

*to'qqizinchidan*, o'zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasida O'zbekiston o'z mudofaa va xavfsizlik kuchi, qobiliyati va strategiyasini kuchaytirib borishini taqozo etadi. Bugungi an'anaviy va noan'anaviy tahdidlarga qarshi kurashda, ayniqsa, global kuch markazlarining bosimi kuchayib borayotgan, tarafkashlikka undash, davlatlarning iqtisodiy to'siq va cheklovlari ortib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston uchun ittifoqchilik munosabatlari va strategik hamkorlik aloqalari muhim o'rin tutadi. Bu O'zbekistonni G'arb va Sharqning muvozanatini saqlashda, AQSh va Xitoy raqobatida milliy va mintaqaviy manfaatlarini saqlash va kuchaytirishda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqa xavfsizligi va barqarorligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor turish kerak bo'ladi. Buning uchun shubhasiz, harbiy tayyorgarlikni rivojlantirish, mudofaa qobiliyatini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash shartdir. Kuchli O'zbekiston barqaror va rivojlangan Markaziy Osiyoning kafolatidir. Mintaqa davlatlarida O'zbekistonga nisbatan shubha va gumonlarda bo'lmasligi uchun ular bilan doim muloqot va ishonchli hamkorlik va ochiqlikni targ'ib qiladigan munosabatlarni olib borish kerak. Davlat tashkilotlari va xalq vakillari bilan samimiy hamkorlik va aloqalar mintaqaning birlashuvi va xavfsiz kelajagini ta'minlaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** ilgari suramiz:

*birinchidan*, hozirgi xalqaro xavfsizlik tizimi arxitekturasining bugungi zamon talablariga to'liq javob bermasligi, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha G'arb va Sharq yondashuvlarining bir-biridan farq qilib, dunyo tartibotining qaytadan qutblashib borish tendensiyasini inobatga olgan holda zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimini isloh qilish zaruriyatidan kelib chiqib, ilmiy doiralarda **"konstruktiv sekyuritizatsiya"** paradigmasini qo'llash taklifini bildiramiz. Mazkur paradigma xavfsizlikka nisbatan konstruktiv muloqot yo'lini muhim deb hisoblaydi;

*ikkinchidan*, Xitoyning xalqaro xavfsizlik, global siyosat va xalqaro

munosabatlardagi o'zni, jahon iqtisodiyoti va texnologiya sohasidagi yetakchilikka bo'lgan intilishi va ta'siri ekspertlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Xitoyning yuksalishi, birinchi navbatda, unga chegaradosh va yaqin mintaqalar uchun sezilmoqda. Shu bois, **O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshida Xitoy tadqiqotlari markazini** tashkil etish lozim;

*uchinchidan*, Qo'shma Shtatlar va Xitoy bugungi jahon siyosati va xalqaro xavfsizlik sohasida nihoyatda katta o'rin va ta'sir kuchiga ega. AQSh liberal demokratik dunyo ustuvorligini targ'ib qilish bilan birga, AQSh manfaatlari har narsadan ustunligini ta'minlashga qaratilgan realist tashqi siyosatga ega bo'lsa, Xitoy demokratiyaga ehtiyotkor munosabatda bo'lib, ko'proq iyerarxik boshqaruvni targ'ib qilish bilan birga, ko'p tomonlama hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatni olib boradi. O'zbekistonda bu ikki buyuk kuchlarning birlashtiruvchi masala va muammolari yuzasidan, xususan, kontrterrorizm yo'nalishida muvofiqlashtirilgan hamkorlikni yo'lga qo'yish, mintaqada qashshoqlik va kambag'allikning oldini olishga qaratilgan ShHT huzurida **Markaziy Osiyo taraqqiyot jamg'armasini** tashkil etish lozim;

*to'rtinchidan*, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi AQSh va Xitoy o'rtasidagi raqobat mintaqasiga aylanib borayotganligi ko'plab dalil va nazariyalarda ta'kidlanib kelmoqda. Yevroosiyo ustidan humkronlikka qaratilgan harakatlar bugun ikki nuqtada kuchayib, keskinlashib bormoqda. Birinchisi, AQSh va Xitoy o'rtasida – Osiyo-Tinch okeani mintaqasida bo'lsa, ikkinchisi, AQSh va Rossiya o'rtasida – Sharqiy Yevropa mintaqasida. Bunday holatda har ikki mintaqaga bevosita tutashadigan Markaziy Osiyo mintaqasida katta geosiyosiy o'yinlardan va tashqi bosimlardan qochish hamda himoyalani choralari ko'rish, buning uchun **Markaziy Osiyo kollektiv xavfsizlik strategiyasini** ishlab chiqish lozim;

*beshinchidan*, o'zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasida Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va barqarorligi, ko'p jihatdan, O'zbekistonga bog'liq. Bu imkoniyat O'zbekistonga tabiiy taqdim etilgan. Shu bois, O'zbekiston o'z mudofaa qobiliyati va xavfsizlik tizimini mustahkamlashi va kuchaytirib borishi lozim. Shuningdek, mintaqada davlatlari bilan ochiq, konstruktiv va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yish bilan birga, mamlakatimiz mintaqadagi **Qirg'iziston va Turkmaniston davlatlari bilan ham ittifoqchilik munosabatlarini** yo'lga qo'yishi bo'yicha hukumatlararo komissiya tashkil etish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

---

**МЕЖДУНАРОДНАЯ ИСЛАМСКАЯ АКАДЕМИЯ УЗБЕКИСТАНА**

**САДИБАКОСЕВ ХАБИБУЛЛО ШОДИБОЙ ЎҒЛИ**

**РОЛЬ США И КИТАЯ  
В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ**

**23.00.04 – Международные отношения, политические проблемы мирового и  
регионального развития**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора политических наук (DSc)**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора политических наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под № B2024.1.DSc/Ss101.**

Диссертация выполнена в Международной исламской академии Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsuos.u) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet ( www.ziyonet.uz).

**Научный консультант:**

**Сайфуллаев Дурбек Бахтиярович**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Касимова Назокат Анваровна**  
доктор политических наук, профессор

**Каримова Наталия Эрмановна**  
доктор исторических наук, профессор

**Нурибетов Рахматулла Ибрагимович**  
доктор политических наук

**Ведущая организация:**

**Академия государственного управления при  
Президенте Республики Узбекистан**

Защита докторской диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 при Ташкентском государственном университете востоковедения «\_\_» \_\_\_\_\_2024г. в \_\_\_\_\_ часов. (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, д.20. Тел.: (99871) 233-34-24. Факс: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под номером«\_\_»). Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, д. 20. Тел.: (99871) 233-34-24. Факс: (99871) 233-52-24.

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_2024г.  
(Протокол реестра рассылки«\_\_» \_\_\_\_\_2024г.)

**Н.А.Абдуллаев**

Исполняющий обязанности  
председателя Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор политических наук, профессор

**Д.И. Мадаминова**

Секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор политических наук, доцент

**Э.С.Султонова**

Председатель научного семинара  
при Научном совете по присужде-нию  
ученых степеней, доктор  
политических наук, профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора политических наук (DSC))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В период все более гибридизирующейся глобализации обеспечение международной безопасности приобретает сложный вид. Наблюдается, что прежние международные институты безопасности не удовлетворяют в должной мере требованиям нынешней международной ситуации. В частности, в качестве основных препятствий на пути к международной безопасности и ее обеспечению выступают такие обстоятельства, как возобновление традиционной напряженности, появление необычных призывов к безопасности, обострение конфликтов и разногласий между государствами, эскалация гонки вооружений. Эти тенденции ослабляют веру в стабильность международной системы безопасности.

Формирование новых подходов к международной безопасности становится очевидным в условиях конкуренции США и Китая. Стратегическая конкуренция между Соединенными Штатами и Китаем в последние годы становится основным определяющим фактором, оказывающим глубокое влияние на региональную и глобальную стабильность, является причиной выбора в качестве основного объекта научных исследований. Международные политические усилия Соединенных Штатов по созданию однополярного мира и Китая по созданию многополярного мира требуют необходимости разработки глубоких методологических и институциональных механизмов обеспечения международной безопасности.

Колебания в международной архитектуре безопасности не могут не оказать влияние и на внешнюю политику Узбекистана. В этом отношении вопрос межгосударственного доверия признается в качестве фундаментальной ценности. «Система международных отношений характеризуется нарастающей нестабильностью и неожиданностями. Сегодня мир сталкивается с кризисом доверия. Фактически, доверие между странами и народами является важнейшим условием безопасности и стабильности». Действительно, Узбекистан сотрудничает с такими крупными странами, как США и Китай, в процессах оживления в Центральной Азии духа доверия и сотрудничества, решения региональных проблем политическими и дипломатическими путями.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП -158 «О Стратегии Узбекистан-2030», Законами Республики Узбекистан от 5 апреля 2018 года № ЗРУ-471 «О Службе государственной безопасности Республики Узбекистан», № ЗРУ-458 от 9 января 2018 года «Об оборонной доктрине Республики Узбекистан» и другими законодательными актами по данной теме.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологии республики I. «Дальнейшее углубление демократических реформ, формирование

гражданского общества, разработка научных основ модернизации и либерализации национальной экономики».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.**

Вопросы места США и Китая в системе международной безопасности широко исследованы со стороны престижных высших образовательных учреждений, исследовательских и интеллектуальных центров в США и странах Европы: Гарвардский, Стэнфордский, Йельский университеты в США, Массачусетский Технологический институт, Институт Центральной Азии и Кавказа, Совет по международным отношениям, Колумбийский университет, Центр российских и евразийских исследований при Оксфордском университете (Великобритания), Институт исследований внешней политики (г. Филадельфия), Женевский Центр политики безопасности (Швейцария), Фонд науки и политики (Германия), исследованы Европейским советом по внешней политике (город Брюссель).

